

**JORIY TA'MIRLASH ISHLARI BO'YICHA  
P U D R A T S H A R T N O M A S I**

**2022 y. «13» 6**

**2022-160-4-69-MT-son**

**Qarshi sh.**

«1-son kompleks loyixa qurilish va montaj» X/K keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiluvchi o'zining nizomi ustavi, asosida ish yurituvchi rahbari **M.Boymatov** timsolida bir tomondan va **Qarshi shahar maktabgacha ta'lim bo'limi** keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yurituvchi, o'zining nizomi ustavi asosida ish yurituvchi rahbari **B.Muminov** timsolida ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

**1. SHARTNOMANING PREDMETI.**

1.1. Ushbu shartnoma buyicha "Pudratchi" «Buyurtmachi»ning buyurtmasiga va tuzilgan loyiha smeta hujjatlariga asosan **Qarshi shahar maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufidagi 43-sonli DMTT binosini joriy ta'mirlash** ishlarini bajarishni, «Buyurtmachi» "Pudratchi" tomonidan loyixa smeta bo'yicha bajargan ishlarni dalolatnoma asosida qabul qilib olishni hamda to'lovni o'z vaqtida amalga oshirishni o'z zimmlariga oladilar.

1.2. Ushbu shartnomaning umumiy summasi **279 000 000 (ikki yuz etmish to'qqiz million)** so'mni tashkil etadi.

**2. SHARTNOMA BUYICHA KELISHUV NARXLAR.**

2.1 Buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan xujjatlarga asosan qurilish ishlarining ya'ni shartnomaning umumiy narxi 279 000 000 (ikki yuz etmish to'qqiz million) so'mni tashkil qiladi.

2.2 SHartnomada ko'rsatilgan ta'mirlash baholari qo'yidagi xollarda uzgartirilish mumkin. Buyurtmachining taklifi bo'yicha ishlar xajmi va ta'mirlash ishlari muddati uzgartirilganda Materillar va jixozlar turi o'zgarganda.

SHartnomani bajarish davrida ta'mirlash qonunchiligidagi baxosi o'zgarganda.

Buyurtmachi tomonidan yoki kutilmagan vaziyatlar bilan bog'liq xollarda ta'mirlashdagi ishlar tuxtatilganda.

Bajarilgan ishlar shartnomada keltirilganiga nisbatan yuqori ko'rsatkichga farq qilgan hollarda

2.3 Mazkur shartnoma bo'yicha pudratchi tomonidan bajarilgan tanlov natijasida aniqlangan va tanlov komissiyasining qarori (**2022 yil « 08 » iyundagi № 91358 son bayonnoma**) bilan tasdiqlangan joriy ta'mirlash ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarini o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda

2.4 Qurilish ishlarining tugatilishi «30» iyul 2022 yil

**3.TA'MIRLASH ISHLARINI BOSHLASH , BAJARISH VA TUGATISH BUYICHA  
SHARTNOMAVIY MUDDATLAR**

3.1. Ta'mirlash ishlarini bajarish muddati mazkur shartnomaning 2.. bandida ko'rsatilgan muddatgacha amalga oshiriladi.

3.2. SHartnomadagi 4.1 bandida kursatilgan avansni «Pudratchi» olgandan so'ng ta'mirlash ishlarini boshlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021 yil 16 martdagi 139-sonli qaroriga asosan byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjet mablag'lari hisobiga tuziladigan shartnomalarida, qoidaga ko'ra, 30 foiz miqdorida oldindan haq (avans) to'lash nazarda tutilgan

3.3.«Buyurtmachi» tomonidan ta'mirlash ishlarini bajarish davrida «Pudratchi»ga o'zi tomonidan xarid qilingan qurilish materiallarini taqdim qilishi mumkin.

3.4.Ta'mirlashni to'xtab qolganligi uchun sababchi bo'lgan tomon buning oqibatida kelib chiqadigan har qanday kamomad yoki javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

3.5.Ta'mirlashni tugallab foydalanishga topshirish uchun tuzilgan komissiya dalolatnomasi tasdiqlangandan sung ta'mirlash ishlari tamom bo'lgan deb hisoblanadi.

#### **4. TO'LOV SHARTI VA TARTIBI**

- 4.1. Ushbu shartnomaning umumiy narxi 279 000 000 (ikki yuz etmish to'qqiz million) summi tashkil etadi. «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlarini boshlash uchun «Pudratchi»ga shartnoma narxining 30 % yoki 83 700 000 so'm miqdorda oldindan to'lov (avans)ni to'laydi va bu oldindan to'lov 2022 yilning may oyida amalga oshiriladi. «Buyurtmachi» tomonidan yakuniy to'lovlar «Pudratchi» ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim qilgandan so'ng 60 kun ichida amalga oshiriladi.
- 4.2. «Buyurtmachi» to'lovni pul o'tkazish yuli bilan amalga oshiradi.
- 4.3. «Pudrat» tashkiloti tomonidan shartnomada ko'rsatilgan so'mmadan oshikcha bajarilgan ishlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar amalga oshirilmaydi.

#### **5. PUDRATCHINING XUKUK VA MAJBURIYATLARI.**

- 5.1. SHartnoma ko'rsatilgan narhda bo'lgan ta'mirlash ishlarini shartnomaning 2.4 bandida ko'rsatilgan muddatda bajarish va o'z vaqtida sifatli kilib topshirish.
- 5.2. Pudratchi maxsus ta'mirlash ishlarini bajarish uchun maxsus yollanma pudratchi tashkilotlarni jalb kilish xukukiga ega.
- 5.3. Har oyning 25 sanasida o'tgan oyda bajarilgan qurilish montaj ishlari to'g'risidagi tegishli hujjatlarni «Buyurtmachi»ga taqdim kilishi shart.
- 5.4. Pudratchi shartnomada nazarda tutilgan mablag' doirasida ishlarni bajaradi va shunga muvofik bajarilgan ishlar to'g'risida dalolatnomani tuzadi.
- 5.5. Oyida bir marta xar oyning 5-kunidan kechiktirmay «Buyurtmachi»ga o'tgan oyda qilingan ishlar uchun to'lov schyoti (xisob faktura)ni takdim kiladi shuningdek xisob faktura «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlab berilgandan so'ng 5 (besh) ish kuni muddatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2019 yil 25 iyundagi 522-sonli qaroriga muvofiq elektron ko'rinishda eXF operatorlari orqali jo'natadi;
- 5.6. Pudratchi Buyurtmachidan bajarilgan xizmat uchun xakni shartnomaning 4.1bandiga asosan kelishilgan vaktida va miqdorda to'lanishini talab kilish xukukiga ega.

#### **6. BUYURTMACHINING XUKUK VA MAJBURIYATLARI**

- 6.1 «Buyurtmachi» «Pudratchi»dan ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida xamda belgilangan standartlarga va amaldagi qonunchilikka asosan topshirishini talab kilish xukukiga ega.
- 6.2 «Buyurtmachi» tasdiqlangan smetasiga muvofiq byudjetda nazarda tutilgan mablag' doirasida shartnoma tuzadi vashartnoma summasiga muvofik dalolatnomani «Pudratchi» bilan birgalikda tuzadi.
- 6.3 «Pudratchi» tomonidan shartnomaning 5.5-bandida nazarda tutilgan muddatlarda taqdim qilingan to'lov schyoti (xisob-faktura)ni qabul qilib oladi va 60 kun ichida qilingan ishlar uchun to'lovni amalga oshiradi.
- 6.4. Sifatsiz xizmat kursatilganda «Buyurtmachi» xizmatni qabul qilib olishdan voz kechishi va kamchiliklarni bartaraf qilish to'g'ritsida 3 kun ichida pudratchini yozma ravishda xabardor qiladi.

#### **7. TARAFLARNING JAVOGBARLIGI.**

- 7.1. «Pudratchi» «Buyurtmachi» tomonidan takdim kilingan loyixa smeta hujjatlariga asosan qurilishni o'z vaqtida lozim darajada bajarmaganda yoki sifatsiz qilinganligi uchun xar bir kechiktirilgan kun uchun ushbu ishlar bajarilmagan kismining summasidan 0,5% miqdorida, biroq bajarilmagan ishlar summasining 50% idan ortiq bulmagan miqdorda penya tulaydi. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni etkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq etkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida etkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.
- 7.2. Agar bajarilgan ishlar sifati bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonunchilikda yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, buyurtmachi ishlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, pudratchidan sifati lozim

darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar ishlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati lozim darajada bo'lmagan ishlar uchun jarima pudratchidanakseptsiz tartibda undirib olinadi.

7.3. «Buyurtmachi» «pudratchi» tomonidan bajarilgan ishlar uchun to'lov schyoti (xisob faktura) takdim kilingandan so'ng moliyalashtirish shartnomada belgilangan vaqtda amalga oshirilmasa kechiktirilgan kun uchun to'lov schyoti (xisob faktura) summasining 0,4 % miqdorida, biroq to'lov schyoti (xisob faktura) summasining 50%idan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi, bunda Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan holatlar bundan mustasno.

## **8. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI.**

8.1 Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni taraflardan biri o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

8.2 Agar shartnoma bo'yicha bir taraf boshqa tarafning axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid keladigan hatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilish kerak: "1008" ishonch telefoni, telegram-kanali "@anticorbot" orqali, yoki hududiy prokuratura organlariga bildirish lozim.

## **9. KAFOLATLAR**

9.1 Barcha ishlar to'liq xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini; Loyixa xujjatlariga xamda qurilish me'yorlari, qoidalar va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;

O'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalari va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyixa xujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatsiyalarga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofiqligini;

Ishlarni qabul qilish va obektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraft qilishni;

Obetdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

9.2 Agar obektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraft etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa u xolda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraft etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar "PUDRATCHI" tomonidan uning o'z xisobidan bartaraft etiladi.

Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraft etish muddatlari "PUDRATCHI" va "BUYURTMACHI" ning ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar "BUYURTMACHI" bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarining kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraft etmasa, u xolda "BUYURTMACHI" mazkur shartnomaning 4.1 bandida nazarda tutilgan kafolat summasini "PUDRATCHI" dan ushlab qolish xuquqiga ega.

## **10. FORS-MAJOR HOLATLARI.**

10.1 Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (engib bo'lmas kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki etarli darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar kiradi.

10.2 Vakolatli organ tomonidan berilgan guvohnoma engib bo'lmas kuch mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun etarli hujjatdir.

10.3 O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf engib bo'lmas kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishiga ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim. Agar engib bo'lmas kuch holatlari uzluksiz 15 kun davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo'lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnoma yuborish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

### 11. KELISHMOVCHILIKLARNI XAL KILISH TARTIBI.

11.1 Taraflar shartnomada kursatilgan majburiyat va shartlarni bajarmagan takdirida Uz.R fukarolik kodekisi va «Xujalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy -xukukiy bazasi tugrisida»gi konuni xamda boshka konun xujjatlari .asosida javobgar buladilar.

11.2 Ushbu shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq, tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan, shuningdek, etkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi nizolar taraflarning o'zaro kelishuvi yoxud qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sud orqali hal etiladi.

### 12. SHARTNOMANING AMAL KILISH MUDDATI.

12.1. 2014 yil 1 yanvardan amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 122-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligiining 2016 yil 22 noyabrdagi 88-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi Qoidalari"( Adliya vazirligida 2016 yil 22 dekabrda 2850-son bilan ro'yxatdan o'tkazildi)ga asosan shartnoma tegishli tartibda g'aznachilik bo'limi ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi xamda 31.12.2022 yilgacha amalda buladi.

12.2 SHartnoma ikki nusxada tuzilgan bulib xar biri bir xil kuchga ega xisoblanadi va taraflarga bir nusxadan saklanadi.

### 13. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI:

#### “PUDRATCHI”

#### «1-son kompleks loyixa qurilish va montaj» X/K

Manzili: Qarshi shahar M.Uyg'ur ko'chasi 35 uy  
Bog'lanish telefoni: (90) 079-72-77  
X/R: 2020 8000 2043 0782 5001  
Bank: "Hamkorbank" ATB Karshi min fil.  
MFO: 01177  
INN: 204 850 106

Rahbar  
M.O'.



#### “BUYURTMACHI”

#### Karshi shahar maktabgacha ta'lim bulimi

Manzili Karshi sh. Islom Karimov kuchasi 405 uy  
Bog'lanish telefoni 226-28-23, 226-12-67  
SH/ hisob raqami 401722860104017091100251001  
STIR 305154445 XXTUT 84112  
Uz. Res. Moliya vazirligi Gaznachiligi  
X /r: 23402000300100001010  
INN: 201122919 MFO: 00014  
Bank : Toshkent sh Markaziy bank bosh boshkarmasi  
XKKM

MTB mudiri  
M.O'.



B.Muminov

## YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

### 1. Loyihaning turi:

Umumiy masalaga oid. "Maktabgacha ta'lim tashkilotining binosini joriy ta'mirlash haqida" buyruq.

### Loyihaning mazmuni:

«1-son kompleks loyixa qurilish va montaj» X/K o'zining nizomi ustavi, asosida ish yurituvchi rahbari M.Boymatov va Qarshi shahar maktabgacha ta'lim bo'limi o'zining nizomi ustavi asosida ish yurituvchi rahbari B.Mo'minov o'rtasida 279 000 000 (ikki yuz etmish to'qqiz million) so'mlik Qarshi shahar maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufidagi 43-sonli DMTT binosini joriy ta'mirlash ishlarini loyixa smeta bo'yicha bajarish to'g'risida".

### 2. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Qarshi shahar xalq ta'limi bo'limi mudiri B.Mo'minov tomonidan 2022 yil 11-iyun kuni taqdim qilingan.

Loyiha amaldagi qonun talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Qarshi shahar Yuridik xizmat  
ko'rsatish xizmati markazi  
bosh yuristkonsuli**

**A.Tajiyev**

2022 yil 13 iyun.



**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 91358 на приобретение 43-сонли ДМТТ  
биносини жорий таъмирлаш ишлари**

Способ проведения электронный

Дата 08.06.2022

Время рассмотрения 03.06.2022 09:17

Конкурсная комиссия Карши шаҳар мактабгача таълим булими (марказлашган), (Далее – Комиссия) в составе:

<b>Председатель комиссии</b>	TURAYEV SARDORBEK KAROM O'G'LI	Binolaming texnik xolati va infratuzilmasini nazorat kilish va jixozlash buyicha muxandis	Qarshi shshaxar MTB
<b>Секретарь комиссии</b>	BARATOV FURKAT FARXODOVICH	Davlat xaridlari va shartnomalar buyicha mutaxasis	Qarshi shshaxar MTB
<b>Член комиссии</b>	RO'ZIBOYEV SAMARIDDIN QAHRAMON O'G'LI	AKT	Qarshi shshaxar MTB
<b>Член комиссии</b>	QULDOSHEV VAXOBJON SALOMOVICH	Xodimlar bilan xisob-kitoblar buyicha xisobchi	Qarshi shshaxar MTB
<b>Член комиссии</b>	RUSTAMOV SHAHZOD UMAR O'G'LI	Ta'minotchi	Qarshi shshaxar MTB
<b>Член комиссии</b>	ABDINABIYEV KOMILJON ANATOLIY O'G'LI	Kommunal xizmatlar buyicha inspektor	Qarshi shshaxar MTB

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 08.06.2022 года № лота 91358.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 70

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту нежилых зданий
Подробное описание	43-сонли давлат мактабгача таълим ташкилоти биносини лойиха смета хужжатларига асосан жорий таъмирлаш ишлари
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	294 000 000.00
Стартовая сумма	294 000 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Таъмирлаш ишларини сифатли ва белгиланган муддатда тугатиши бўйича расмий кафолат хати билан қатнашмоғи лозим. Малакали ишчиларнинг буйруқ асосида ишга олинганлиги тўғрисида маълумот ва буйруқ нухаси

Тип: Текстовое значение

Описание: Таъмирлаш ишларини сифатли ва белгиланган муддатда тугатиши бўйича расмий кафолат хати билан

қатнашмоғи лозим. Малакали ишчиларнинг буйруқ асосида ишга олинганлиги тўғрисида маълумот ва буйруқ нусхаси

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
EVEREST HOUS CONSTRUCTION ADD MCHJ	15	Таъмирлаш ишларини сифатли ва белгиланган муддатда тугатиши бўйича расмий қафолат хати билан қатнашмоғи лозим. Малакали ишчиларнинг буйруқ асосида ишга олинганлиги тўғрисида маълумот ва буйруқ нусхаси	5	Экспертная		
"Коммунал саноат курилиш" МЧЖ	15	235200000	15	Экспертная		
1-Son kompleks loyiha КМК	15	279000000	15	Экспертная		

Критерий №2 Доимий ишчилар сони 10 нафар ва ундан юкори булганда (солик ва мехнат базаси билан бир хил булиши лозим)

Тип: Текстовое значение

Описание: Доимий ишчилар сони 10 нафар ва ундан юкори булганда (солик ва мехнат базаси билан бир хил булиши лозим)

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
EVEREST HOUS CONSTRUCTION ADD MCHJ	20	Доимий ишчилар сони 10 нафар ва ундан юкори булганда (солик ва мехнат базаси билан бир хил булиши лозим)	10	Экспертная		
"Коммунал саноат курилиш" МЧЖ	20	235200000	15	Экспертная		
1-Son kompleks loyiha КМК	20	279000000	20	Экспертная		

Критерий №3 Курилиш ташкилоти Узбекистон Республика курилиш вазирлигидан ретинг парталидан категория

Тип: Текстовое значение

Описание: Курилиш ташкилоти Узбекистон Республика курилиш вазирлигидан ретинг парталидан категория

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
EVEREST HOUS CONSTRUCTION ADD MCHJ	20	Рейтинг парталидан категория	0	Экспертная		
"Коммунал саноат курилиш" МЧЖ	20	235200000	20	Экспертная		
1-Son kompleks loyiha KMK	20	279000000	20	Экспертная		

Критерий №4 Охирги бажарган ишлари хакида маълумот, бажарилган ишлар юзасидан Форма № 3, ва Форма № 5 шакллари

Тип: Текстовое значение

Описание: Охирги бажарган ишлари хакида маълумот, бажарилган ишлар юзасидан Форма № 3, ва Форма № 5 шакллари

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
EVEREST HOUS CONSTRUCTION ADD MCHJ	15	Охирги бажарган ишлари хакида маълумот,	5	Экспертная		
"Коммунал саноат курилиш" МЧЖ	15	235200000	10	Экспертная		
1-Son kompleks loyiha KMK	15	279000000	15	Экспертная		

Критерий №5 Пудратчининг ишларни олиб бориш жараёнида фойдаланиладиган асбоб ускуналар ва механизмлар рўйхати. Пудратчининг техникалари мавжудлиги тугрисида маълумот ёки ижара шартномаси нусхаси (онлайн тасдиқланган).

Тип: Текстовое значение

Описание: Пудратчининг ишларни олиб бориш жараёнида фойдаланиладиган асбоб ускуналар ва механизмлар рўйхати. Пудратчининг техникалари мавжудлиги тугрисида маълумот ёки ижара шартномаси нусхаси (онлайн тасдиқланган).

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
EVEREST HOUS CONSTRUCTION ADD MCHJ	20	Пудратчининг ишларни олиб бориш жараёнида фойдаланиладиган асбоб ускуналар ва механизмлар рўйхати. Пудратчининг техникалари мавжудлиги тугрисида маълумот ёки ижара шартномаси нусхаси (онлайн тасдиқланган).	10	Экспертная		



Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"Коммунал саноат курилиш" МЧЖ	20	235200000	15	Экспертная		
1-Son kompleks loyiha КМК	20	279000000	20	Экспертная		

Критерий №6 Коррупцион холатларга йул куймаслик хакида кафолат хати

Тип: Текстовое значение

Описание: Коррупцион холатларга йул куймаслик хакида кафолат хати

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
EVEREST HOUS CONSTRUCTION ADD MCHJ	15	Коррупцион холатларга йул куймаслик хакида кафолат хати	15	Экспертная		
"Коммунал саноат курилиш" МЧЖ	15	235200000	15	Экспертная		
1-Son kompleks loyiha КМК	15	279000000	15	Экспертная		

Критерий №7 ЭЯТТ кийматининг камида 20% микдориди айланма маблагларга эга булиш (хамда солик карздорлиги мавжуд эмаслиги тўгрисида маълумот, Банкдан кредит карздорлиги ва К-2 карздорлиги мавжуд эмаслиги тугрисида маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: ЭЯТТ кийматининг камида 20% микдориди айланма маблагларга эга булиш (хамда солик карздорлиги мавжуд эмаслиги тўгрисида маълумот, Банкдан кредит карздорлиги ва К-2 карздорлиги мавжуд эмаслиги тугрисида маълумот

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
EVEREST HOUS CONSTRUCTION ADD MCHJ	20	Банкдан кредит карздорлиги ва К-2 карздорлиги мавжуд эмаслиги тугрисида маълумот	10	Экспертная		
"Коммунал саноат курилиш" МЧЖ	20	235200000	20	Экспертная		
1-Son kompleks loyiha КМК	20	279000000	20	Экспертная		

Критерий №8 Кафолат хатида бажарилдиган ишлар сифатига кафолат ҳамда белгиланган муддат ичида қилинган ишлардан нуқсонлар ва камчиликлар аниқланса Пудратчи ташкилотнинг ҳисобидан алмаштирилиши ва қайта таъмирлаб берилиши инобатга олинishi шарт

Тип: Текстовое значение

Описание: Кафолат хатида бажарилдиган ишлар сифатига кафолат ҳамда белгиланган муддат ичида қилинган ишлардан нуқсонлар ва камчиликлар аниқланса Пудратчи ташкилотнинг ҳисобидан алмаштирилиши ва қайта таъмирлаб берилиши инobatга олиниши шарт

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
EVEREST HOUS CONSTRUCTION ADD MCHJ	15	Кафолат хатида бажарилдиган ишлар сифатига кафолат ҳамда белгиланган муддат ичида қилинган ишлардан нуқсонлар ва камчиликлар аниқланса Пудратчи ташкилотнинг ҳисобидан алмаштирилиши ва қайта таъмирлаб берилиши инobatга олиниши шарт	5	Экспертная		
"Коммунал саноат курилиш" МЧЖ	15	235200000	15	Экспертная		
1-Son kompleks loyiha KMK	15	279000000	15	Экспертная		

Критерий №9 Танлов савдо иштирокчиси тўғрисидаги умумий ахборот (Устав ва Гувоҳномадан, Таъсисчи ва раҳбарнинг Паспорт нусхалари). Танлов иштирокчилари фақатгина ташкилот раҳбари ёки унинг ўрнини босувчи шахс тўғрисида маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Танлов савдо иштирокчиси тўғрисидаги умумий ахборот (Устав ва Гувоҳномадан, Таъсисчи ва раҳбарнинг Паспорт нусхалари). Танлов иштирокчилари фақатгина ташкилот раҳбари ёки унинг ўрнини босувчи шахс тўғрисида маълумот

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
EVEREST HOUS CONSTRUCTION ADD MCHJ	15	Танлов савдо иштирокчиси тўғрисидаги умумий ахборот (Устав ва Гувоҳномадан, Таъсисчи ва раҳбарнинг Паспорт нусхалари).	15	Экспертная		
"Коммунал саноат курилиш" МЧЖ	15	235200000	15	Экспертная		
1-Son kompleks loyiha KMK	15	279000000	15	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
1-Son kompleks loyiha KMK	294 000 000.00	279 000 000.00	31.05.2022 16:36:33	16.86
EVEREST HOUS CONSTRUCTION ADD MCHJ	294 000 000.00	263 000 000.00	30.05.2022 19:38:55	17.89
"Коммунал саноат курилиш" МЧЖ	294 000 000.00	235 200 000.00	31.05.2022 14:45:23	20.00

Итоговая оценка участников включая финансовую часть составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
1-Son kompleks loyiha KMK	80	16.86022	96.86022
EVEREST HOUS CONSTRUCTION ADD MCHJ	38.7096	17.88593	56.59553
"Коммунал саноат курилиш" МЧЖ	72.2584	20	92.2584

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 91358 от 08.06.2022 года на приобретение 43-сонли ДМТТ биносини жорий таъмирлаш ишлари определила победителем:

1-Son kompleks loyiha KMK  
204850106

и резервный исполнитель: "Коммунал саноат курилиш" МЧЖ (204039037)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
<b>Председатель комиссии</b>	TURAYEV SARDORBЕК KAROM O'G'LI	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	RO'ZIBOYEV SAMARIDDIN QAHRAMON O'G'LI	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	QULDOSHEV VAXOBJON SALOMOVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	RUSTAMOV SHAHZOD UMAR O'G'LI	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	ABDINABIYEV KOMILJON ANATOLIY O'G'LI	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

Қарши шаҳар мактабгача таълим  
бўлими мудири  
Б.Муминов  
10.06.2022 йил

Қарши шаҳар мактабгача таълим бўлимининг  
уммумий йиғилиши қарори  
№ 22

2022 йил 7 июн

Қарши шаҳар

Раислик қилувчи:

Мухандис С.Тураев

Қатнашдилар:

Энг яхши таклифларни танлаш бўйича  
тузилган танлов комиссияси аъзолари

**КУН ТАРТИБИДА:**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тўғрисида”ги ЎРҚ-684 сонли Қонуни ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 30 майдаги “Давлат харидларини амалга ошириш билан боғлиқ тартиб-таомилларни ташкил этиш ва ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги № 276-сонли қарорига асосан электрон энг яхши таклифларни танлаб олишда юзага келадиган ҳар хил турдаги шикоятларни кўриб чиқиш тўғрисида

Кун тартибидаги масала юзасидан Қарши шаҳар мактабгача таълим бўлими комиссия аъзолари сўзга чиқиб, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 30 майдаги “Давлат харидларини амалга ошириш билан боғлиқ тартиб-таомилларни ташкил этиш ва ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги № 276-сонли қарорига асосан электрон энг яхши таклифларни танлаб олиш бўйича электрон энг яхши таклифларни танлашда тақдим этилган ҳужжатларни тўлиғича ўрганиб чиқишлиги ҳақида гапириб ўтишди. Юқоридаги қонун ва қарорларга асосан Давлат харидлари электрон ахборот порталининг энг яхши таклифларни танлаш бўйича жойлаштирилган Лот № 22110012091358 асосан 43-сонли ДМТТ биносини жорий таъмирлаш ишлари учун барча ҳужжатларни ўз муддатида ўрганиб чиқиш мақсадида МТБнинг жавобгар шахслари томонидан бошқариладиган ишларнинг аниқ чора-тадбирлари ишлаб чиқилиб, шу асосида иш юритилиши лозимлиги эслатиб ўтилди.

Кун тартибида муҳокама қилинган масалалар юзасидан йиғилишда

**ҚАРОР ҚИЛАДИ:**

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 30 майдаги “Давлат харидларини амалга ошириш билан боғлиқ тартиб-таомилларни ташкил этиш ва ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги № 276-сонли қарорининг 5-боб Танлашнинг 98, 100 бандига асосан танлов ғолибини аниқлаш тўғрисидаги Дастлабки электрон баённома у расмийлаштирилган кунда давлат харидларининг электрон тизимида муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилиши кераклиги кўрсатиб ўтилди. Агар икки иш куни мобайнида танлаш иштирокчилари томонидан танлаш ўтказиш натижалари бўйича эътирозлар келиб тушмаган бўлса, давлат буюртмачиси ва харид комиссиясининг

тегишли расмийлаштирилган электрон баённомасида ғолиб деб топилган иштирокчи ўртасида шартнома тузилади.

Юқоридаги қонун ва қарорларга асосан электрон энг яхши таклифларни танлаш бўйича тузилган комиссия аъзоларига белгиланган муддатлар ўтишига қарамасдан ҳеч қандай ариза ва шикоятлар келиб тушмаганлигини билдиради.





2. Юқоридаги қонун ва қарорларга асосан электрон энг яхши таклифларни танлаш бўйича тузилган комиссия аъзоларига белгиланган муддатлар ўтишига қарамасдан ҳеч қандай ариза ва шикоятлар келиб тушмаганлигини билдиради.

3. 2022 йил 8 июн кундаги № 91358 га асосан электрон харид комиссиясининг баённомасида ғолиб бўлган танлаш иштирокчиси ўртасида шартнома тузиш, ҳужжатларни расмийлаштириш ҳисобчи Ф.Баратов зиммасига юклатилсин

4. Ушбу қарорни бажарилишини назорат қилиш Қарши шаҳар МТБ муҳандиси С.Тўраев зиммасига юклатилсин.

**Комиссия аъзолари:**

1. 
2. 
3. 
4. 
5. 

1. 
2. 
3. 
4. 
5. 